



ARCHAEOLOGICAL MONUMENTS OF THE FERGANA VALLEY AND HISTORICAL ANALYSES OF THEIR STUDY...

Shakhnoza Khayitova

lecturer

University of Business and Science

Uzbekistan

E-mail: hayitovashahnoza51@gmail.com

Borillo Beknazarov

junior researcher

National Center of Archeology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: borillobeknazarov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Ferghana valley, historical sources, archeological findings, crafts, trade, cultural development, popularization process, etc.

Received: 16.01.24

Accepted: 18.01.25

Published: 20.01.25

Abstract: In this article, the archeological monuments and reports about the Ferghana Valley are studied, the cities of the valley, their cultural development, crafts and trade, urbanization processes, the monuments of Elatan, Chust, Aksikent, Dalvarzin and the finds found in them, Ferghana sources of ancient history are given.

FARG'ONA VODIYSINING ARXEOLOGIK YODGORLIKHLARI VA ULARNING O'RGANILISHI BO'YICHA TARIXIY TAHLILLAR...

Shaxnoza Xayitova

o'qituvchi

University of Business and Science

O'zbekiston

E-mail: hayitovashahnoza51@gmail.com

Borillo Beknazarov

kichik ilmiy xodim

O'zbekiston respublikasi Fanlar Akademiyasi Milliy Arxeologiya Markazi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: borillobeknazarov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Farg'ona vodiysi, tarixiy manbalar, arxeologik

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg'ona topilmalar, vodiysi hududida o'rganilgan arxeologik

hunarmandchilik, savdo, madaniy taraqqiyot, shaharashish jarayoni va boshqalar

yodgorliklar va ularning o‘rganilishi, vodiy shaharlari, ularda madaniy taraqqiyot, hunarmandchilik va savdo, urbanizatsiya jarayonlari, Elatan Chust, Axsikent, Dalvarzin yodgorliklari va ulardan topilgan topilmalar, Farg‘onaning qadim tarixiga oid manbalar haqida ma’lumotlar berilgan.

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ИХ ИЗУЧЕНИЯ...

Шахноза Хаитова

преподаватель

University of Business and Science

Узбекистан

E-mail: hayitovashahnoza51@gmail.com

Борилло Бекназаров

младший научный сотрудник

Национальный археологический центр Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: borillobeknazarov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ферганская долина, исторические источники, археологические находки, ремесла, торговля, культурное развитие, популяризационный процесс и др.

Аннотация: В данной статье приведены археологические памятники и их изучение на территории Ферганской долины, долинные города, культурное развитие, ремесло и торговля, процессы урбанизации, памятники Елатана, Чуста, Аксикента, Далварзыны и их находки, ферганские источники древней истории.

Davlatchiligimiz tarixida Farg‘ona vodiysi tarixining o‘rni va ahamiyati qanchalar muhim ekanligini bu hududda eng qadimgi odam makonlari topilganligi, qo‘shni hududlar bilan savdo va madaniy aloqalarning yaxshi rivojlanganligi hamda urbanizatsiya jarayonlari bilan ham ifodalananadi.

O‘rta Osiyodagi tog‘lar orasida joylashgan bu o‘lka yirik tog‘ tizmalari botiqlaridan biri bo‘lib, u shimolda Tyanshan, janubda Hisor-Oloy va Turkiston tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan. Asosan, Farg‘ona vodiysi O‘zbekiston, qisman Qirg‘iziston va Tojikiston Respublikalari hududida joylashgan. Farg‘ona vodisining uzunligi 300 km, eni 60-120 km, eng keng joyi esa 170 km hisoblanib, maydoni 22 ming km²ni tashkil etadi. Mazkur maqolada vodiy shaharsozligining ilk davrlaridan boshlab, ilk o‘rta asrlar davrigacha bo‘lgan jarayonni yoritiladi.

Farg‘ona vodiysi shaharlarini arxeologik tadqiq qilinishi A.N.Bernshtam, Yu.A. Zadneprovskiy, V.I. Sprishevskiy, T.G. Obolduyeva, N.G. Gorbunova, G.A. Bro‘kina,

V.I. Kozenkova, .A. Anarbaev, B.Abdulg‘oziyeva, B.X. Matboboev, G.P. Ivanov kabilar faoliyatlari bilan bog‘liq.

Shimoliy Farg‘onaning arxeologik o‘rganilishining ikkinchi davrini bevosita A.N.Bernshtamdan keyin bu hududda 1950 yillarda ilmiy izlanishlar olib borib, qadimgi Farg‘ona madaniyatini davrlashtirish masalasini qayta ko‘rib chiqqan olim Yu.A.Zadneprovskiy tadqiqotlari bilan bog‘lash mumkin. U o‘z ishlarida ilmiy muomalaga shu kunga qadar arxeologik tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelayotgan “Eylaton madaniyati” tushunchasini kiritdi va Eylaton shahar harobasi davrini mil. avv. I ming yillikning o‘rtalari bilan davrlashtirdi. Bu davrlashtirishning isboti keyingi davrlarda arxeolog olim B.X.Matboboevning ham tadqiqotlarida o‘z ifodasini topdi.


Bundan tashqari, arxeologik tadqiqotlar davom ettirilib, bobodehqonlarimizning dastlabki qishloqlaridan biri 1950-51 yillarda M.E.Voronets tomonidan Chust shahri yaqinidagi Buvanamozor deb atalgan buloq yoqasidan topib o‘rganilgan. M.E.Voronets mazkur yodgorlikda ikki marta tekshiruv ishlari olib bordi. Uncha ko‘p bo‘lmagan sopol parchalari, bronza buyum bo‘laklariga asoslangan tadqiqotchi Chust yodgorligini mil. avv. III – II mingyilliklar bilan belgiladi. Shundan so‘ng Chust yodgorligi uzoq yillar maxsus tadqiqotlar maydoniga aylandi.

M.E.Voronetsdan so‘ng bu yerdagи qazishma ishlarini akademik Ya.G‘.G‘ulomov rahbarligida V.I.Sprishevskiy muvaffaqiyatlар davom ettirdi. 1953-1961 yillarda ushbu tadqiqotchi yodgorlikning deyarli barcha joylarida keng miqyosli arxeologik qazishmalar olib bordi. Mazkur qazishma ishlarining yakuni sifatida V.I.Sprishevskiy juda katta miqdordagi moddiy madaniyat namunalarini aniqlab, ilmiy muomalaga kiritdi. V.I.Sprishevskiy va A.Asqarovning Chust yodgorligini o‘rganishdagi xizmatlari beqiyos. U Farg‘ona vodiysi qadimgi madaniyatining o‘rganilayotgan davrga xos xususiyatlarini to‘g‘ri aniqlay oldi. Olimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida Chust madaniyatii rivojlanish davrini 2 davrga bo‘lib ko‘rsatadilar:

1. So‘nggi bronza davri bo‘lib, mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragidan to mil.avv. VIII davom qilgan.
2. Ilk temir davri bo‘lib, mil.avv. VIII – VII asrlarni o‘z ichiga oladi.

Qadimgi chustliklar hayotida 3 ta xo‘jalik tarmog‘i o‘ziga xos o‘rin egallagan: dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik. Dehqonchilikda, asosan, boshoqli o‘simpliklar ekilgan. Don mahsulotlari strategik ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun, ularni yaxshilab suvalgan maxsus o‘ralarda saqlashgan.

Hunarmandchilik ko‘p tarmoqli bo‘lgan: bronzadan zeb-ziynat va xo‘jalik buyumlaridan tortib jangovor qurollargacha ishlab chiqarilgan.



Chust madaniyatida metall hunarmandchilikgi ham yaxshi rivojlangan. Tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Kundalik hayotda sopol idishlarning o‘rni katta bo‘lgan. Xo‘jalikda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, pishirish va iste‘mol qilishda asosan sopol idishlardan foydalanilgan. Idishlarqo‘lda yasalganligiga qaramay, ularning ko‘pi och va to‘q qizil rangli bo‘yoq bilan qoplangan bo‘lib, sifati yaxshi bo‘lgan. Oshxona idishlarining ma‘lum bir qismiga to‘q va och qizil rang bilan har xil geometrik bezaklar berilgan. Masalan, Dalvarzintepadan 1500 ga yaqin tosh qurollari topilgan. Kulolchilik idishlarini qo‘lda yasaganlar.

Chust madaniyatiga oid sopol parchalari Dalvarzintepadan, Afrosiyobning quyi qatlamidan, Yerqo‘rg‘onning pastki qatlamidan, Shahrисabz hududida joylashgan ilk o‘rta asrlar davriga oid bo‘lgan To‘rtko‘ltepa yodgorligining quyi qatlamidan va qadimgi Baqtriya hududidagi Kuchuktepa, Bo‘yrachi, Qizilcha, Maydatepa kabi yodgorliklardan topilgan. Dalvarzintepa-so‘nggi jez davriga mansub qishloq harobasi (mil. av. X—VIII-asrlar).






FIG. 5. Chust culture clay vessels from Dalverzin-tepe.



Chust madaniyatinit eng yirik yodgorligi. Andijon viloyatining Oyim qishlog‘i yaqinidan topilgan. Dalvarzintepaning 6000 m²ga yaqin qismi ochilgan (1966). 2,5 m dan 3,5 m gacha madaniy qatlam 3 qurilish qavatiga bo‘linadi. Har bir qavatidan uy-joy qoldiqlari, jez quyish ustaxonalari, g‘alla o‘ralari, mehnat qurollari topilgan. Vodiy hududidagi eng muhim arxeologik yodgorlik Axsikent yodgorligi bo‘lib yodgorlik miloddan avvalgi III asrda Axsikent yodgorligi o‘rnida 40gektardan ziyod maydonda qadimgi Farg‘ona davlatining poytaxti Farg‘ona (Axsikat) shahriga asos solinadi. U topografik nuqtai nazardan 3 qismdan iborat bo‘lgan: qal‘a (ark), ichki shahar (shahriston) va shahar (rabod).

Axsikent hunarmandlarining ko‘pchiligi temir, po‘lat ishlab chiqarishva ulardan xilmashil buyumlar va qurollar tayyorlash bilan band bo‘lgan. Arxeologik tadqiqotlar Farg‘ona-Axsikat



shahrining iqtisodiy salohiyati va uning Markaziy Osiyoda tutgan o‘rnini aniqlash imkonini berdi. Ma‘lum bo‘lishicha, Axsikatning ustasi farang hunarmandlari boyitilgan temirdan sof po‘lat ("bulat")olishni bishishgan. Buning uchun maxsus kaolin loyidan tayyorlangan silindr shaklidagi idishga ("tigel") boyitilgan temir xom ashysini solib, unga yog‘och ko‘mir va boshqa bizga noma‘lum bo‘lgan qo‘shimchalarni qo‘shib, so‘ng maxsus pechga qo‘yilgan. Pechning ichi ham kaolin loyi bilan suvalgan. Kaolin loyidan tayyorlangan maxsus idish (tigel) va pech 1650-1700° C issiqlikka chidagan. Po‘lat ishlab chiqarish texnologiyasi sir tutilgan. Tayyor bo‘lgan po‘latni idishda sovutib, so‘ng, uni idishni sindirish yo‘li bilan olingan. Bunday po‘latdan tayyorlangan qilichlarning bahosi juda yuqori turgan. Shuning uchun bunday qurollar ko‘pincha boy-badavlat odamlar yoki savdogarlar buyurtmasi asosida tayyorlangan.

Axsikatda tayyorlangan qurollar "Damashq" qilichlari nomi bilan butun dunyoga mashhur edi. Buni biz manbalardagi ma‘lumotlardan ham bilib olsak bo‘ladi. Masalan, arab tarixchi-geograflari Al-Muqaddasiy va Ibn Havqal yozib qoldirgan manbalarda, Ustrushona temiri Farg‘ona (Axsikat) ustalari qo‘liga tushgach, u inson aqli yetmaydigan narsalarga (qurollarga)

aylangan, deyilgan. Umuman olganda Farg'ona-Axsikat shahri o'rta asrlarda har tomonlama rivojlanib, o'z davrining megapolisiga aylanadi. so'ngi yillarda Axsikent yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasi va tadqiqot ishlariga boshchilik ilayotgan arxeolog ustozimiz tarix fanlari doktori, professor Abdulhamidjon Anorboyevning xulosalariga ko'ra , Eski Axsi va Yangi Axsi toponimlari bitta Axsikat shaharining turli davrlarga oid xarobalariga mahalliy xalq tomonidan berilgan nomlardir. Hozirgi kunlardagi Axsi qishlog'i esa 1620-yilda yuz bergen 9 balli zilziladan keyin shakllangan 15 ta qishloqning biri hisoblanadi.

Uning Eski Axsi va Yangi Axsi deb atalgan arxeologik yodgorliklarga aloqasi yo'q. So'ngi kunnarda ijtimoiy tarmoqlarda Axsikentning o'rganilishi va o'rganish bo'yicha berilayotgan ilmiy xulosalarga qarshi fikrlar ham uchrab turibdi. Shuni ta'kidlash joizki, Eski Axsi (Axsikent) yodgorligi hududida olib borilgan qazishmalar davrida biror joyda Temuriylar davriga oid arxitektura qoldiqlari topilmadi. Bunday topilmalar 1980-yillarda Yakka Yigit qishlog'i hududida saqlanib qolgan Yangi Axsi yodgorligida olib borilgan tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan.



Foydalanimilgan adabiyotlar:

1. Анарбаев А. Довоннинг самовий отлари // ФАН ва ТУРМУШ. №3-5 Тошкент, 2008. С. 93-95.
2. А.Анорбоев, У.Исломов, Б.Матбобоев. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. Фан, 2001. 68-б.
3. А.Анарбаев. Ахсикет – столица древний Ферганы. . – Т.: Tafakkur, 2013. С.
4. Анорбоев. А Фарғонанинг антик ва урта асрлар даври шахар маданияти. Докт. дисс.-Т.2017.154-б
5. Anorboyev A.Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularni Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni.-T.2021.148-b
6. М.Х.Исомиддинов. А.Алохунов. Фарғона водийси илк дехқон ва чорвадорлари маданиятини ўрганилиш тарихи ва айрим муаммолари // Фарғона водийси тарихи муаммолари. Республика илмий анжумани материаллари. Наманган, 2012. 5-б.